

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”  
Qo‘qon davlat universiteti  
rektori D.Sh.Xodjayeva  
2026-yil 6-mart**

**60111300-“MUSIQA TA‘LIMI” TA‘LIM YO‘NALISHI BITIRUVCHI  
KURS TALABALARI UCHUN “MAXSUS (MAJBURIY) FANLARDAN”  
YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYA SINOV DASTURI VA  
BAHOLASH MEZONI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta‘lim
Ta‘lim sohasi:	110000 – Ta‘lim
Ta‘im yo‘nalishi:	60111300-Musiqqa ta‘limi

**QO‘QON-2026**

Ushbu dasturda 60111300-Musiqa ta’limi yo‘nalishi sirtqi ta’lim shakli uchun “Musika o‘qitish metodikasi”, “Maktab repertuari”, “Umumiy pedagogika”, “Umumiy psixologiya” fanlari bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish tartibi, baholash mezonlari, savollari va o‘quv adabiyotlari hamda elektron ta’lim resurslari ro‘yxati keltirilgan.

<b>Tuzuvchilar:</b>	E.B.Qobilova	Qo‘qon davlat universiteti Musika nazariyasi kafedrası mudiri, professor
	O.Sobirova	Qo‘qon davlat universiteti Musika nazariyasi kafedrası assistent o‘qituvchisi (PhD)
	U.Raxmonov	Farg‘ona davlat universiteti, Musika ta’limi va madaniyati kafedrası dotsenti, O‘rta maxsus ta’lim kasb hunar ta’limi a‘lochisi
	Z. A.Xolmatova	Qo‘qon davlat universiteti “Pedagogika” kafedrası mudiri, Dsc, professor
	D.A.Saliyeva Sh.Ibragimova	Qo‘qon davlat universiteti “Psixologiya ” kafedrası mudiri, ps.f.n, professor Qo‘qon davlat universiteti Psixologiya kafedrası v/b dotsent.
	A.Lutufullayev	Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrası, mudiri, professor
<b>Taqrizchilar:</b>	N.Erkaboyeva	Qo‘qon davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” fakulteti dekani professor, p.f.d
	D.Murodova	Farg‘ona davlat universiteti, Vokal va cholg‘u ijrochiligi kafedrası dotsenti, (PhD)
	Sh.Raximov	Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti “Musiqiy ta’lim” kafedrası dotsenti
	U.Maqsudov	Farg‘ona davlat universiteti Pedagogika kafedrası (PhD) dotsent
	E.B.Qobilova	Qo‘qon davlat universiteti Musika nazariyasi kafedrası mudiri, professor

Qo‘qon davlat universiteti Kengashining 2026-yil 6-mart 7-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

### **“Musiqqa o‘qitish metodikasi” fanining mazmuni.**

**“Musiqqa o‘qitish metodikasi”** fani - bo‘lajak musiqqa o‘qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashga qaratilgan nazariy va amaliy fan hisoblanadi. Ushbu fan umumiy pedagogika, psixologiya, musiqashunoslik hamda metodika yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi va ta‘lim jarayonida musiqaning tarbiyaviy, estetik hamda ma‘naviy ahamiyatini ochib beradi. Fan mazmunida musiqqa ta‘limining maqsad va vazifalari, uning didaktik tamoyillari, darsni tashkil etish shakllari, o‘qitish usullari va vositalari keng yoritiladi. Jumladan, umumta‘lim maktablarida musiqqa darslarini rejalashtirish, yillik va kunlik dars ishlanmalarini tuzish, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulot olib borish masalalari asosiy o‘rin tutadi. “Musiqqa o‘qitish metodikasi” fanida musiqqa savodi, qo‘shiq kuylash, xor bilan ishlash, tinglash madaniyatini shakllantirish, ritmik harakatlar, musiqiy ijodkorlik elementlarini rivojlantirish kabi yo‘nalishlar chuqur o‘rganiladi. Shuningdek, o‘quvchilarda milliy va jahon musiqqa merosiga hurmat, estetik did, badiiy tafakkur hamda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish metodlari tahlil qilinadi. Fan doirasida darsning zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi, interfaol metodlardan foydalanish, innovatsion yondashuvlarni qo‘llash masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqqa darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, audiovizual vositalarni qo‘llash, multimediali taqdimotlar tayyorlash ham metodikaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuningdek, mazkur fan o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Jumladan, pedagogik mahorat, nutq madaniyati, sahnaviy madaniyat, dirijyorlik asoslari, bolalar ovozini asrash va rivojlantirish usullari kabi masalalar ham fan mazmuniga kiradi. “Musiqqa o‘qitish metodikasi” fanining yana bir muhim jihati — milliy musiqqa merosini ta‘lim jarayoniga integratsiya qilishdir. O‘zbek xalq qo‘shiqlari, maqom namunalaridan foydalanish, milliy an‘ana va qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish metodik jihatdan asoslab beriladi. Modul-kredit tizimida ta‘lim olayotgan talabalar “Musiqqa o‘qitish metodikasi” fan dasturi sirtqi ta‘lim shaklining 5-kursning 8-semesterida o‘qitish rejalashtirilgan. Talabalar yakuniy davlat attestatsiyasida “Musiqqa o‘qitish metodikasi” fanidan imtihon topshirishi belgilab qo‘yilgan. “Musiqqa o‘qitish metodikasi” fani bo‘lajak o‘qituvchilarga musiqqa darslarini ilmiy asosda tashkil etish, o‘quvchilarning musiqiy-estetik tarbiyasini samarali yo‘lga qo‘yish hamda ularni ma‘naviy barkamol shaxs etib tarbiyalash ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

## **“Musiqqa o‘qitish metodikasi” fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovining asosiy savollari**

1. O‘quvchining musiqiy qobiliyatini aniqlash usullari qanday?
2. Innovatsion yondashuvlar asosida musiqqa darsini tashkil etish misoli
3. Musiqqa darsining namunaviy ishlanmasini tuzishda qaysi bosqichlar e’tiborga olinadi?
4. Milliy sertifikat tizimi musiqqa o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini qanday rivojlantiradi?
5. Pedagogikaning umumdidaktik tamoyillarining mohiyati nimalardan iborat?
6. Umumdidaktik tamoyillarning qanday turlari mavjud?
7. Musiqqa o‘qitish metodlarining maqsad va vazifalari qanday?
8. Musiqqa o‘qitish metodlari xususiy turlardan iboratmi?
9. Musiqqa o‘qitishning og‘zaki metodlari nimani anglatadi?
10. Darsni musiqiy umumlashtirish metodi nimani anglatadi?
11. Musiqiy o‘quvi bo‘sh bo‘lgan bolalar bilan ishlash metodi qanday qo‘llaniladi?
12. Vokal–xor malakalari musiqqa darsida qanday ahamiyatga ega?
13. Vokal–xor malakalari qanday turlari mavjud?
14. Nafas necha turga bo‘linadi?
15. Ashulachilik nafasi necha turga bo‘linadi?
16. Ashulachilik apparatining tuzilishi qanday?
17. Bolalar cholg‘u asboblari jo‘r bo‘lish faoliyati qachondan qo‘llaniladi?
18. «Blits–o‘yin» metodi bu nima?
19. «Muloqot» texnikasi bu nima?
20. Uchta asosiy musiqqa janrlarini toping
21. Qo‘shiq o‘rgatish qaysi harakatdan boshlanadi?
22. Musiqiy ta’limda interfaol metodlarni qo‘llash qanday natija beradi?

23. Klaster metodi qanday ishlanadi?
24. "Musika bilan o'yinlar" musiqiy tarbiya asoschisi kim?
25. Musika o'qituvchisi oldiga qanday zamonaviy talablar qo'yilgan?
26. Tembr qaysi so'zdan olingan?
27. Pedagogik texnologiya nima?
28. "Bumerang" texnologiyasi nima?
29. Musika darsida ijodiy jarayonni tashkil etishda qanday muammolar bor?
30. O'quvchilar shaxsiyatida musiqiy psixologik va balog'at yosh xususiyatlarini e'tiborga olish muammolari qanday yuzaga chiqadi?
31. Kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladigan omil qaysi?
32. Kasbiy kompetentligi mukammal o'qituvchi musika darsida o'quvchilarga nima beradi?
33. Pedagogik mahoratga ega mutaxassis bu kim?
34. Venn diagrammasini darsda qo'llashda o'quvchilarda nima shakllanadi?
35. K-4 modeli ichiga nimalarni oladi?
36. Kollaboratsiya nima?
37. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vaziri kim?
38. Bayram tadbirlari ijobiy o'tishi uchun nima qilish kerak?
39. Xakkalar qo'shig'ining kompozitori kim?
40. Umumta'lim maktablarida nechta milliy musika cholg'u asboblari bor?
41. 02.02.2022 yildagi PQ-112-son qaror nima to'g'risida chiqarilgan?
42. Musika o'qituvchisining roli haqida to'g'ri javobni tanlang
43. Zamonaviy musiqiy texnologiyalarni darslarda qo'llashning afzalliklari nimada?
44. Musika o'qituvchisi uchun talabalarning qanday qobiliyatlari ustida ishlash zarur?
45. Zamonaviy musiqiy pedagogikada talabalarga qanday yondashuv samarali?

46. Musiqa o'qituvchisining ijtimoiy va madaniy mas'uliyati qanday?
47. Musiqa o'qituvchisi darslarda interaktiv metodlarni qanday qo'llaydi?
48. Musiqa o'qituvchisining o'quvchilarga kognitiv va emotsional rivojlanishga ta'siri qanday bo'lishi kerak?
49. Zamonaviy musiqiy o'quv dasturlarida qanday o'zgartirishlar kiritish talab qilinadi?
50. Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari fani talabalarni qanday faoliyatga tayyorlaydi?
51. 1-sinfda musiqa darslarining asosiy maqsadi nima?
52. Musiqa darslari orqali bolalarda qanday qobiliyatlar rivojlantiriladi?
53. Musiqa darslarida qo'llaniladigan metodlar qaysi javobda to'g'ri berilgan?
54. Musiqa darslari orqali bolalarda qanday hislatlar shakllanadi?
55. 1-sinf o'quvchilari bilan musiqa mashg'ulotlari qanday shaklda o'tkaziladi?
56. 2-sinfda musiqa darslarining asosiy maqsadi nima?
57. Musiqa darslarining asosiy vazifalari qaysilar?
58. Musiqa darsida o'quvchilar qanday faoliyatlar bilan shug'ullanadilar?
59. O'quvchilarda musiqa tinglash madaniyatini rivojlantirish uchun nima qilish kerak?
60. 3-sinf musiqa darslarining asosiy maqsadi nima?
61. O'quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish uchun nima qilish kerak?
62. Qaysi cholg'u asboblari bilan 3-sinf o'quvchilari tanishadi?
63. 4-sinf musiqa darslarining asosiy maqsadi nima?
64. 5-sinf musiqa darslarining asosiy maqsadi nima?
65. 6-sinf musiqa darslarining asosiy maqsadi nima?
66. 7-sinf musiqa darslarining asosiy maqsadi nima?
67. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy maqsadi nima?
68. Sinfdan tashqari ishlar qanday shakllarda tashkil etiladi?

- 69.Sinfdan tashqari ishlarni samarali tashkil qilish uchun eng muhim omil qaysi?
- 70.Bayram tadbirlarini tashkil qilishning asosiy maqsadi nima?
- 71.Bayram tadbirlarini tashkil etishda qanday bosqichlar muhim?
- 72.Maktabda qanday bayram tadbirlari o'tkazilishi mumkin?
- 73.Tadbirlar qanday shakllarda o'tkazilishi mumkin?
- 74.Diapazon nima?
- 75.Kuylash texnikasida to'g'ri nafas olish qoidasi nima uchun muhim?
- 76.Musiqqa darsida didaktik o'yinlardan foydalanishning asosiy maqsadi nima?
- 77.“Repertuar” atamasi nimani anglatadi?
- 78.Musiqiy eshitish malakasini shakllantirishda eng muhim vosita nima?
- 79.Xalq og'zaki ijodi namunasi qaysi?
- 80.O'quvchilarning kuylash mahoratini oshirish uchun qanday mashq kerak?
- 81.Tovushning tembri deganda nimani tushunasiz?
- 82.Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun eng mos musiqiy janr qaysi?
- 83.Maktab repertuarida kuylarning tanlanish mezonlari qanday bo'lishi kerak?
- 84.Dirijyor nima ishni bajaradi?
- 85.Musiqqa darsida intonatsiya ustida ishlash nimani anglatadi?
- 86.Vokal ansambl nima?
- 87.Maktab musiqqa darslari nechta asosiy faoliyat turiga tayanadi?
- 88.Cholg'ularni sinflashda asosiy mezonlardan biri nima?
- 89.Xor nima?
- 90.Bolalar uchun yozilgan qo'shiqlar qanday bo'lishi kerak?
- 91.Musiqqa darslarida chizma va suratdan foydalanish nima uchun kerak?
- 92.Musiqiy diktant nima?
- 93.O'quvchilarni musiqiy ijodkorlikka qanday jalb qilish mumkin?

94. Musiqa darslarida nafas mashqlari nima uchun kerak?
95. Metronom nima?
96. Musiqa fanining tarbiyaviy vazifasi nimadan iborat?
97. Musiqa darslarida kuylashdan tashqari yana nima qilinadi?
98. Orf pedagogikasi nimani o'rgatadi?
99. Qo'shiqni ifodali kuylash uchun nimalar muhim?
  100. Tovush kuchi deganda nima tushuniladi?
  101. O'quvchilarning musiqiy eshituv qobiliyatini rivojlantirish uchun nima kerak?
  102. Musiqa darslarining asosiy shakli nima?
  103. «Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari» fanining maqsadi?
  104. Musiqaning inson hayotidagi o'rni haqida ilk fikr bildirgan mutafakkirlar kimlar?
  105. Musiqa o'qituvchisiga qo'yiladigan zamonaviy talablar?
  106. «Musiqa madaniyati» fanidan yangi dastur xususiyati?
  107. «Musiqa madaniyati» darsining maqsad va vazifalari?
  108. Musiqa darsi o'ziga xos qanday xususiyatga ega?
  109. Yuqori sinflarda musiqa darslari faoliyati necha turdan iborat?
  110. Boshlang'ich sinflarda dars faoliyati necha turdan iborat?
  111. Nima uchun o'rta sinflarda dars faoliyati kamayadi?
  112. Shaxs kamolotini rivojlantirishda musiqa tarbiyasining maqsadi?
  113. Vokal-xor malakalarining ahamiyati?
  114. Sinfdan va maktabdan tashqari musiqa tarbiyasi mazmuni?
  115. O'zbekistonda musiqa madaniyati shakllari tarixi?
  116. 5-sinfda musiqa o'qitishning vazifalari va mazmuni?
  117. 6-sinfda musiqa o'qitish mazmuni va metodlari?
  118. 7-sinfda musiqa o'qitish mazmuni va metodlari?
  119. Sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy tarbiya shakli va mazmuni?
  120. Xorijiy mamlakatlarda musiqa ta'limi tizimi?
  121. Musiqiy to'garaklar?
  122. Maktab repertuari asarlarini ijrosida musiqiy-ritmik partitura ustida ishlash?
  123. Qo'shiq o'rgatishda vatanparvarlik tarbiyasi?
  124. Musiqa o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar?
  125. Qo'shiq kuylash orqali nafosat tarbiyasini shakllantirish?
  126. Musiqa tinglash va musiqiy did tarbiyasi?
  127. Musiqa asarini annotatsiyaga tayyorlash?

- 128 Musiqa darsi ishlanmasini tayyorlash?
- 129 Musiqiy-ritmik partitura ustida ishlash nimaga xizmat qiladi?
- 130 Musiqiy-ritmik partitura ustida ishlashning asosiy maqsadi?
- 131 Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash?
- 132 Nafosat tarbiyasini shakllantirish?
- 133 Ashulachilik apparati va ovoz hosil qilish?
- 134 Notaga qarab kuylash malakasi?
- 135 1-sinfda musiqa o'qitish maqsadi?
- 136 Bolalarni milliy cholg'ularga o'rgatish metodikasi?
- 137 Buyuk mutafakkirlarning musiqa tarbiyasiga hissasi?
- 138 Darsdan tashqari tadbirlarda innovatsion texnologiyalar?
  
- 139 2-sinfda musiqa o'qitish metodikasi?
  
- 140 Qo'shiq o'rgatishda vatanparvarlik?
- 141 Musiqa o'qituvchisiga qo'yiladigan talab?
  
- 142 Nafosat tarbiyasi?
- 143 Musiqa tinglash va did tarbiyasi?
- 144 O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi qarorlari mazmuni?
- 145 Vazirlar Mahkamasining milliy sertifikat tizimi maqsadi?
- 146 Milliy sertifikat tizimining huquqiy asoslari?
- 147 Milliy sertifikat zarurati nimadan kelib chiqqan?
- 148 Milliy sertifikat tizimining ahamiyati?
- 149 Sertifikat olish talablari?
- 150 Test sinovlari tarkibi?
- 151 Innovatsion texnologiyalar asosida tadbir tashkil etish?
- 152 O'zbek bastakor va kompozitorlik ijodini o'rgatish?
- 153 Maktab o'quvchilarini musiqiy o'qitish mazmuni?
- 154 Maktabda musiqa darsining o'rni?
- 155 Vokal-xor malakalari turlari?
- 156 Sinfdan tashqari musiqa tadbirlarining maqsadi?
- 157 Maktabdan tashqari musiqa tarbiyasi shakli?
- 158 Bolalar cholg'u asboblari ustida ishlash?
- 159 Darsda qo'shiq ijro etishga tayyorlash?
- 160 Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash metodikasi?
- 161 Musiqiy savod nima?
- 162 Ritm nima?

- 163 Tempo nima?
- 164 Dinamika nimani bildiradi?
- 165 Ansambl nima?
- 166 Musiqada pauza nimani bildiradi?
- 167 Nota nima?
- 168 Gammaning ma'nosi nima?
- 169 Major lad qanday xarakterga ega?
- 170 Minor lad qanday xarakterga ega?
- 171 Musiqiy interval nima?
- 172 Oktava nima?
- 173 Xalq qo'shiqlarining asosiy xususiyati nima?
- 174 Musiqada janr nima?
- 175 Marş qanday xarakterdagi musiqa?
- 176 Raqs musiqasining asosiy xususiyati nima?
- 177 Cholg'u ansambli nima?
- 178 Orkestr nima?
  
- 179 Simfonik orkestr tarkibi nimalardan iborat?
- 180 Xor jamoasi nechta ovoz turidan iborat bo'lishi mumkin?
- 181 Dirijyor tayoqchasi nima uchun ishlatiladi?
- 182 Solist kim?
- 183 Bastakor kim?
- 184 Kompozitor va bastakor tushunchasi nimani anglatadi?
  
- 185 Musiqiy ifoda vositalari qaysilar?
  
- 186 Musiqiy asarni tahlil qilish nimani anglatadi?
  
- 187 Bolalar xorining asosiy vazifasi nima?
  
- 188 Musiqiy tarbiya nimaga xizmat qiladi?
- 189 Musiqa orqali bolalarda qanday sifatlar rivojlanadi?
  
- 190 Musiqiy tinglash jarayonida o'quvchi nimani o'rganadi?
- 191 Maktabda musiqa darsining asosiy vazifasi nima?
  
- 192 Musiqiy mashg'ulotlarda ko'rgazmalilik nima uchun muhim?

- 193 Musiqa san'ati inson ruhiyatiga qanday ta'sir qiladi?
- 194 Test sinovlarining tarkibi (nazariy, metodik, amaliy) qanday qismlardan iborat?
- 195 Faqat amaliy mashqlardan
- 196
- 197 Amaliy ijro sinovi qanday mezonlar asosida baholanadi?
- 198 Baholash mezonlarida kompetensiyaviy yondashuv qanday aks etgan?
- 199 Musiqa darsining namunaviy ishlanmasini tuzishda qaysi bosqichlar e'tiborga olinadi?
- 200 O'quvchining musiqiy qobiliyatini aniqlash usullari qanday?

**Musiqa o'qitish metodikasi fanidan o'quv adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati**  
**Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar**

<b>№</b>	<b>Muallif</b>	<b>Adabiyot nomi</b>	<b>Nashr yili</b>	<b>Adabiyot-ning ARMdagi shifri</b>	<b>Adabiyot-ning ARMdagi inventar raqami</b>	<b>Turi</b>	<b>ARMdagi soni</b>
1	E.Qobilova	Musiqa o'qitish metodikasi	2023y	74.268.43	325543	Darslik	30 ta
2	E.Qobilova	Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari	2020	74.268.43	y/k407/1-100	O'quv qo'llanma	100
3	S. Begmatov	6-sinf "Musiqa"	2017	85.31ya72	316421-316426	Darslik	6

**Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qathiy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalqso'zigazetasi. 2017 yil 16 yanvarg', №11

2. Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent “O`zbekiston” – 2017y.
3. Mirziyoev .Sh.M. Erkin va faravon demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O`zbekiston” NMIU, 2016y.
4. Mirziyoev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. “O`zbekiston” NMIU, 2016 y.
5. MADANIYAT VA SAN’AT SOHASINI RIVOJLANTIRISH CHORATADBIRLARI TO‘G‘RISIDA O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida”O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 1-ilova: “2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi”. Xalq so`zi gazetasi. 2017 yil 8 fevralg`soniva Internet resurs: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
6. “O`zbekiston Vatanim manim” to`plam I, II, III, IV-qismlar. Toshkent: Mehnat, 1997.
7. Nurmatov H. va boshqalar. 1-3 sinf «Musiqqa» darsliklari. T.,2002
8. Ibrohimov O` 4, 7 sinf «Musiqqa» darsliklari T.,2001.
9. A.Mansurov Karimova D. 5 sinf «Musiqqa» darsliklari T.,2001
10. Begmatov S., D. Karimova 6 sinf. «Musiqqa» darsliklari T.,2007
11. Sharipova G`M. Musiqqa o`qitish metodikasi. T. 2004

### **Elektron ta`lim resurslari**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

## **“Maktab repertuari” fanining umumiy mazmuni**

**“Maktab repertuari”** fani musiqa ta’limi yo‘nalishida tahsil olayotgan, xususan sirtqi ta’lim talabalari uchun mo‘ljallangan muhim kasbiy-amaliy fanlardan biridir. Ushbu fan umumta’lim maktablarida musiqa darslarini mazmunli va samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan qo‘shiqlar, kuylar, xor asarlari hamda bolalar uchun mos musiqiy namunalarning tanlovi va ijro usullarini o‘rgatishga qaratilgan. Fan mazmunida turli yosh bosqichidagi o‘quvchilar uchun tavsiya etiladigan qo‘shiqlar, xalq kuy-qo‘shiqlari, kompozitorlar asarlari, bayram va mavsumiy qo‘shiqlar, vatanparvarlik, do‘stlik, tabiat, ona va maktab mavzusidagi repertuar namunalari o‘rganish asosiy o‘rin tutadi. Talabalar har bir asarning musiqiy-tarbiyaviy ahamiyatini, g‘oyaviy mazmunini, diapazon va ijro imkoniyatlarini tahlil qilishni o‘rganadilar. Sirtqi ta’lim shaklida o‘qitiladiganligi sababli fan talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi. Ular berilgan repertuarni mustaqil o‘rganish, tahlil qilish, fortepianoda jo‘r bo‘lish, kuylarni transponatsiya qilish, bolalar ovoziga moslashtirish kabi amaliy vazifalarni bajaradilar. Shuningdek, dars jarayonida repertuar tanlash mezonlari, yosh xususiyatlarini hisobga olish, ovoz diapazoni va psixologik omillarni inobatga olish masalalari metodik jihatdan asoslab beriladi. Fan doirasida milliy musiqa merosidan keng foydalanish masalasi ham muhim o‘rin egallaydi. O‘zbek xalq qo‘shiqlari, bolalar folklori namunalari, maqom parchalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarda milliy ruh, estetik did va badiiy tafakkurni shakllantirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, jahon bolalar musiqasi namunalari repertuarga kiritish orqali musiqiy dunyoqarashni kengaytirish maqsad qilinadi. “Maktab repertuari” fani o‘qituvchining ijrochilik mahoratini ham rivojlantiradi. Talabalar qo‘shiqni ifodali kuylash, xor bilan ishlash, jo‘rnavezlik qilish, sahnaviy madaniyat va dirijyorlik elementlarini qo‘llashni amaliy mashg‘ulotlar orqali mustahkamlaydilar. Xulosa qilib aytganda, “Maktab repertuari” fani sirtqi ta’lim talabalari uchun umumta’lim maktablarida musiqa darslarini mazmunli tashkil etish, yosh avlodni estetik va ma’naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalashda zarur bo‘lgan repertuar tanlash va uni amaliy qo‘llash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

### **“Maktab repertuari” fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovining asosiy savollari**

1. “Vatanjonim – vatanim” she’rini muallifi kim?
2. “Vatanjonim – vatanim” musiqasini bastakori kim?
3. “Vatanjonim – vatanim” o‘lchovi nechchi?
4. Musiqa madaniyati darsligida 1-sinf yil mavzusi nima?

5. Musiqa madaniyati darsligida 1-sinf 1-chorak mavzusi
6. Musiqa madaniyati darsligida 1-sinf 2-chorak mavzusi
7. Musiqa madaniyati darsligida 1-sinf 3-chorak mavzusi
8. “Vatanjonim – vatanim” tempi qanday?
9. Andijon polkasi tempi qanday?
10. Andijon polkasi o‘lchovi nechchi?
11. Tovushlar asosan necha turga bo‘linadi?
12. F. Nazarovning “Yurish marshi” nechchi o‘lchovda yozilgan?
13. “Anjir” qo‘shig‘i bastakori kim?
14. “Anjir” qo‘shig‘i she‘rini kim yozgan?
15. “Anjir” qo‘shig‘i o‘lchovi nechchi?
16. “Anjir” qo‘shig‘i qaysi tempda?
17. Milliy cholg‘ular bilan nechanchi sinfda tanishtiriladi?
18. “Olma” qo‘shig‘i kompozitori kim?
19. “Olma” qo‘shig‘i she‘rini kim yozgan?
20. “Olma” qo‘shig‘i o‘lchovi nechchi?
21. “Olma” qo‘shig‘i qaysi tempda?
22. “Lavlagi” qo‘shig‘i kompozitori kim?
23. “Lavlagi” qo‘shig‘i she‘rini kim yozgan?
24. “Lavlagi” qo‘shig‘i o‘lchovi nechchi?
25. Musiqali o‘yinlarga qaysi asar kiradi?
26. “Kuz” qo‘shigi kompozitori kim?
27. “Kuz” qo‘shigi she‘rini kim yozgan?
28. Qaysi asar o‘zbek xalq kuylari emas?
29. “Diloromning qo‘shigi” kompozitori kim?
30. “Diloromning qo‘shigi” she‘rini kim yozgan?
31. “Nevaralar” qo‘shigi mualliflari kim?
32. “Nevaralar” qo‘shigi o‘lchovi nechchi?
33. “Salom bergan bolalar” asari mualliflari kim?
34. “Salom bergan bolalar” nechanchi sinf darsligida berilgan?
35. “Sehrli duhyo” asari mualliflari kim?
36. “Sehrli duhyo” asari o‘lchovi nechchi?
37. F. Nazarov “Yurish marshi” tempi?
38. F. Nazarov “Yurish marshi” nechchi o‘lchovda yozilgan?
39. “Paxtaoy” qo‘shigida nechta alteratsiya belgilari bor?
40. “Paxtaoy” qo‘shigi kompozitori kim?
41. “Dovyuraklar kerak” asari kompozitori kim?
42. “Dovyuraklar kerak” asari qanday xarakterda yozilgan?
43. “Dovyuraklar kerak” asari o‘lchovi qanday?

44. “Dovyuraklar kerak” asari she’rini muallafi kim?
45. “...Ushanday avlod bizning o‘zimiz...” qaysi qo‘shiq naqorati?
46. “Alifbo bayrami” qo‘shigi nechanchi sinf repertuarida berilgan?
47. “Alifbo bayrami” qo‘shigi mualliflari kimlar?
48. Repertuar so‘zining ma’nosi nima?
49. Repertuar so‘zi qaysi tildan olingan?
50. “Qari navo” qaysi millat asari?
51. “Qari navo” qanday xarakterda ijro etiladi?
52. N. Norho‘jaevning “Archa bayram” qo‘shig‘i qaysi tonallikda yozilgan?
53. D. Omonullayeva nechanchi yilda va qaerda tavallud topgan?
54. Qaysi asar raqsbob asar emas?
55. N. Norhujaevning “Birinchi qor” asari shoiri kim?
56. “...ey qor, shodsan buncha xam, ...” qaysi qo‘shiq so‘zlari?
57. “Norim – norim” kuyi qaysi millat asari?
58. “Diloromning qo‘shigi” bastakori kim?
59. “Diloromning qo‘shigi” asar she’rini kim yozgan?
60. “Diloromning qo‘shigi” asari nech kupletdan iborat?
61. Musiqa madaniyati 2-sinf 1-chorak mavzusi qanday nomlanadi?
62. “Nevaralar qo‘shigi” asari bastakori kim?
63. “Nevaralar qo‘shigi” asari she’rini kim yozgan?
64. “... Ayam va dadam bo‘lsinlar bardam, dunyo tyrguncha tursinlar hardam.”  
Qaysi qo‘shiq so‘zidan olingan?
65. P. Chaykovskiy “Gullar vals” qaysi baletda ijro etiladi?
66. Vals nechiga sanaladi?
67. Musiqa madaniyati 2-sinf II-chorak mavzusi qanday nomlanadi?
68. Berilgan kompozitorlarning ichida qaysi biri bolalar kompozitori hisoblanmedi?
69. “Dutor bayoti” asari nech o‘lchovda yozilgan?
70. “Bahor” asari mualliflari kimlar?
71. “Bahor” asari nech o‘lchovda yozilgan?
72. Bastakor Rustam Abdullayev nechanchi yilda tug‘ilgan?
73. “Norim-norim”, “Qari-navo”, “Asp-bulaman” kuylari nechanchi sinf musiqa darsligida berilgan?
74. “...osmonda yulduzchalar, yonida bo‘lgim kelar.” Qaysi qo‘shiqdan olingan?
75. “Dutor bayoti”, “Dilhiroj”, “Doloncha” kuylari nechanchi sinf musiqa darsligida berilgan?
76. “Kapalak” asarini kim bastalagan?
77. “Aziz bo‘ston – O‘zbekiston” asarini mualliflari kim?

78. "Aziz bo'ston – O'zbekiston" asari qaysi tonallikda yozilgan?
79. "Aziz bo'ston – O'zbekiston" asari qanday xarakterga ega?
80. Sh. Yormatov nechanchi yilda tug'ilgan?
81. F. Nazarov "Maktabim" asarining she'rini kim yozgan?
82. "Baxtli erkato'y" asari she'rini muallafi kim?
83. "Baxtli erkato'y" asarini bastakori kim?
84. "Baxtli erkato'y" nechki kupletdan iborat?
85. "...voy, voy, voy... ertalab turib ichmas eken choy." Qaysi qo'shiq so'zlaridan olingan?
86. "Qadim turon" asari she'rini muallafi kim?
87. "Qadim turon" asarini bastakori kim?
88. "Qadim turon" asari nechki kupletdan iborat?
89. "...ey Xumo qush parvozi xush..." Qaysi qo'shiq so'zlaridan olingan?
90. "Buvijonim – buvijon" asari she'rini muallafi kim?
91. "Buvijonim – buvijon" asari tempi?
92. "Buvijonim – buvijon" asari bastakori kim?
93. "...oq paxtadey sochingiz, omon bulsin boshingiz..." qaysi qo'shiq so'zlaridan olingan?
94. "Oltin kuz qo'shigi" kompozitori kim?
95. "Oltin kuz qo'shigi" she'rini muallafi kim?
96. "Muzqaymoq" qo'shigi kompozitori kim?
97. Musiqa madaniyati darsligida 3-sinf yil mavzusi nima?
98. Musiqa madaniyati 3-sinf I-chorak mavzusi qanday nomlanadi?
99. Musiqa madaniyati 3-sinf II-chorak mavzusi qanday nomlanadi?
100. Musiqa madaniyati 3-sinf III-chorak mavzusi qanday nomlanadi?
101. Musiqa madaniyati 3-sinf IV-chorak mavzusi qanday nomlanadi?
102. Musiqa madaniyati 4-sinf I-chorak mavzusi qanday nomlanadi?
103. Musiqa madaniyati 4-sinf II-chorak mavzusi qanday nomlanadi?
104. Musiqa madaniyati 4-sinf III-chorak mavzusi qanday nomlanadi?
105. Musiqa madaniyati 4-sinf IV-chorak mavzusi qanday nomlanadi?
106. "Sog'lom avlod qo'shigi" nechanchi sinf repertuarida berilgan?
107. "Quyosh bo'lsin, oy bo'lsin, O'zbekiston boy bo'lsin" qaysi bolalar qo'shig'ining so'zlari?
108. "G'ildiragim" qo'shigi kompozitori kim?
109. "Uxlab turdim" qo'shigi mualliflari kim?
110. "Uxlab turdim" qo'shigi musiqqa madaniyati darsligida nechanchi sinfda berilgan?
111. "Oppoq qandim" qo'shigi mualliflari kim?

- 112 “Quvnoq bollar qo‘shig‘i” mualliflari kim?
- 113 “Yahshi bola” qo‘shig‘i mualliflari kim?
- 114 “Biz askariz” qo‘shig‘i mualliflari kim?
- 115 “Sovuq kimni izlaydi” musiqa madaniyati darsligida nechanchi sinfda berilgan?
- 116 “Sovuq kimni izlaydi” qo‘shig‘i mualliflari kim?
- 117 “Onajonim sog‘ buling” qo‘shig‘i mualliflari kim?
- 118 “Bulbulcha – buling” qo‘shig‘i mualliflari kim?
- 119 “Yoz yaxshi” qo‘shig‘i mualliflari kim?
- 120 “Chumoli” qo‘shig‘i mualliflari kim?
- 121 Fortepiano qanday ma‘noni bildiradi?
- 122 Boshlang‘ich sinflarda necha dars faoliyat turlari bor?
- 123 Diapazon nima?
- 124 O‘zbekiston Respublikasida musiqa fani nechinchi sinfgacha o‘qitiladi?
- 125 Musiqada vibratsiya nima?
- 126 Akkolada nima?
- 127 Petya va Bo‘ri asarini kim yozgan?
- 128 Xayvonlar sultoni operasida qaysi mavzu olg‘a surilgan?
- 129 Kvartet nima?
- 130 Nafas necha turli bo‘ladi?
- 131 Maktablarda nechta milliy cholg‘u asboblari bo‘lishi shart?
- 132 Kamon bilan chalinadigan asboblari qaysilar?
- 133 Unison nima?
- 134 Trel nima?
- 135 Tremolo nima?
- 136 Skripka nima yordamida chalinadi?
- 137 PQ-112-sonli qaror nima to‘g‘risida?
- 138 Kamerton nima?
- 139 Bolalar musiqa san‘atini egallashga eng demokratik va ommaviy hususiyatga ega bo‘lgan tur bu ... ishlaridir
- 140 Barcha togaraklarda raqs, lapar, yalla kabi janrlarda asosan kim ishlaydi?
- 141 “Sog‘lom avlod qo‘shig‘i”ni kim yaratgan?
- 142 Musiqaning inson hayotida tutgan o‘rni haqida qaysi mutafakkirlar o‘z fikrlarini bildirganlar?
- 143 Bolalar ovozi qaysilar?
- 144 Umumdidaktik tamoyillarni qanday turlari mavjud?
- 145 Musiqa o‘qitish metodlari qanday turlardan iborat?

- 146 Musiqa o‘qitishning xususiy (optimal) metodari nimani anglatadi va necha turlari bor?
- 147 Musiqiy o‘quvchi bo‘sh bo‘lgan bolalar bilan ishlash metodi madaniyati darsida qanday qo‘llaniladi?
- 148 Vokal - xor malakalari musiqa darsida qanday ahamiyatga ega?
- 149 Vokal - xor malakalari qanday turlari mavjud?
- 150 Nafas necha turga bo‘linadi?
  
- 151 Ashulachilik nafasi necha turga bo‘linadi?
- 152 Ashulachilik apparatini tuzilishi qanday?
- 153 Bolalar cholg‘u asboblari jo‘r bo‘lish faoliyatini nechanchi sinfdan qo‘llaniladi va uning ahamiyati
- 154 Havaskorlar honandalik to‘garagiga yozilishi uchun avvalo nimalarga e‘tibor berishi kerak?
- 155 Bolalar cholg‘u asboblari qanday turlari mavjud?
  
- 156 Havaskor to‘garaklarga qatnashadigan yigitlarning ovozlari nima deb yuritiladi?
- 157 Qaysi yoshdagi bolalarning ovozi oktavaga yaqin?
- 158 “Dugonalar” qoshigini muallifi kim?
- 159 To‘garak qatnashuvchisining musiqiy hotirasi qanday tekshirib ko‘riladi?
- 160 Havaskorlik xorini tashkil qilish asosan necha guruhga bo‘linadi?
- 161 Bolalar ovozi alt qanday partiya?
- 162 Aralash xorni qanday ovozlar tashkil etadi?
  
- 163 To‘liqsiz aralash xor deb nimaga etiladi?
- 164 Qo‘shiq o‘rgatish metodlari necha bosqich jarayonida amalga oshiriladi?
- 165 O‘zbek xalq musiqasi necha turga bo‘linadi?
- 166 Temp nima?
- 167 Bolalar xorida ovozlar qanday bo‘linadi?
- 168 Ikki ovozli qo‘shiq o‘rgatishda qanday metodlardan foydalaniladi?
- 169 Pauza nima?
- 170 O‘zbek xalq cholg‘u asboblari necha turga bo‘linadi?
- 171 Unison so‘zining ma‘nosi qanday?
- 172 Xorda kuylash jarayonida qanday nafas olinadi?
- 173 Quyidagilardan qaysi biri san‘at turi janr deb ataladi?
- 174 «Yaxshi bola» qo‘shig‘ini qaysi kompozitor yozgan?
- 175 Beshinchi sinfdan yil mavzusi qanday nomlanadi?

- 176 «Xayvonlar sultoni» operasini qaysi kompozitor yozgan?
- 177 Mumtoz musiqa qanday ma`noni anglatadi?
- 178 «Mutatsiya» so`zi ovozni o`zgartirish degan ma`noni anglatadi. 7-sinfda ovoz o`zgargan o`quvchilar bilan qanday ish olib boriladi?
- 179 «Mutatsiya» davri o`quvchilarda necha yoshda boshlanadi va qaysi davrgacha davom etadi?
- 180 Sinfdan tashqari to`garak ishlariga o`quvchilar qanday jalb qilinadi?
- 181 Sinfdan tashqari ommaviy ishlarga o`quvchilar qanday jalb etiladi?
- 182 Sinfdan tashqari musiqiy to`garakni muvaffaqiyati nimada?
- 183 Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining qanday shakllari bor?
- 184 Sinfdan tashqari ommaviy ishlar qanday rejalashtiriladi?
- 185 To`g`arak ishlarining ish rejasi qanday tuziladi?
- 186 Musiqa tarbiyasini rivojlantirishda xissa qo`shgan buyuk mutafakirlari?
- 187 O`zbekistonda birinchi o`qituvchilar konferentsiyasi qachon o`tkazildi?
- 188 «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qachon qabul qilingan?
- 189 Skripka kaliti qaysi oktavalarni o`z ichiga olgan?
- 190 Musiqa madaniyati fanida yaratilgan yangi dastur qanday xususiyatlarga ega?
- 191 Taniqli tojik olimi, musiqachisi faylasufi A.Jomiy «Risolai dar ilmi musiqa» kitobida nima haqida yozilgan?
- 192 Darsni musiqiy umumlashtirish metodi nimani anglatadi?
- 193 Vokal – xor malakalarini qanday turlari mavjud?
- 194 Musiqa tarbiyasini rivojlantirishga hissa qo`shgan buyuk mutafakkirlar kimlar?
- 195 O`zbekistonda birinchi o`qituvchilar konferensiyasi qachon o`tkazilgan?
- 196 “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qachon qabul qilingan?
- 197 Skripka kaliti qaysi oktavalarni o`z ichiga oladi?
- 198 Musiqa madaniyati fanida yaratilgan yangi dastur qanday xususiyatlarga ega?
- 199 Jomiy “Risolai dar ilmi musiqa” asarida nimalar haqida yozgan?
- 200 Darsni musiqiy umumlashtirish metodi nimani anglatadi?

**“Maktab repertuari” fanidan o`quv adabiyotlar va elektron ta`lim resurslari  
ro`yxati**

**Asosiy darslik va o`quv qo`llanmalar**

№	Muallif	Adabiyot nomi	Nashr yili	Adabiyotning ARMdagi shifri	Adabiyotning ARMdagi inventar raqami	Turi	ARMdagi soni
1	E.Qobilova	Musiqqa o'qitish metodikasi	2023y	74.268.43	325543	Darslik	30 ta
2	E.Qobilova	Musiqqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari	2020	74.268.43	y/κ407/1-100	O'quv qo'llanma	100
3	S. Begmatov	6-sinf "Musiqqa"	2017	85.31ya72	316421-316426	Darslik	6
4.	Sh.Turdiyev	Maktab repertuari	2023	74.268	U/K1027/4-25,575/3-15	O'quv qo'llanma	35

### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalqso'zigazetasi. 2017 yil 16 yanvarg', №11
2. Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent "O'zbekiston" – 2017y.
3. Mirziyoev .Sh.M. Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" NMIU, 2016y.
4. Mirziyoev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2016 y.
5. MADANIYAT VA SAN'AT SOHASINI RIVOJLANTIRISH CHORATADBIRLARI TO'G'RISIDA O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 1-ilova: "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha

Harakatlar strategiyasi”. Xalq soʻzi gazetasi. 2017 yil 8 fevralg`soniva  
Internet resurs: www.lex.uz.

6. “O‘zbekiston Vatanim manim” to‘plam I, II, III, IV-qismlar. Toshkent: Mehnat, 1997.
7. Nurmatov H. va boshqalar. 1-3 sinf «Musiqqa» darsliklari. T.,2002
8. Ibrohimov O‘ 4, 7 sinf «Musiqqa» darsliklari T.,2001.
9. A.Mansurov Karimova D. 5 sinf «Musiqqa» darsliklari T.,2001
- 10.Begmatov S., D. Karimova 6 sinf. «Musiqqa» darsliklari T.,2007
- 11.Sharipova G‘M. Musiqqa o‘qitish metodikasi. T. 2004

### **Elektron ta`lim resurslari**

1. www. ziyonet. uz
2. www. edu. Uz

### **Umumiy pedagogika faning mazmuni**

**Umumiy pedagogika** haqida tushuncha, uning o‘qituvchi faoliyatida tutgan orni. O‘qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat. Qobiliyatning psixologik-pedagogik tavsifi. Pedagogik qobiliyatning asosiy turlari. Empatiya va pertseptiv qobiliyatlar. O‘qituvchining kommunikativ qobiliyati. Muloqot orqali ta`sir etish. Muloqotga kirishish. O‘qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi. “Muloqot” atamasining falsafiy, ijtimoiy, psixologik va pedagogik mohiyati, muloqot birligi. Pedagogik muloqot, uning o‘ziga xos xususiyatlari.

Pedagogik muloqotni tashkil etish madaniyati. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot. Dars hamda darsdan tashqari jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqot, unga qo‘yiladigan talablar. Pedagogik nazokat va odob-axloq. Pedagogik odob va pedagogik nazokat haqidagi tushuncha. Pedagogik nazokat tamoyillari va uning vazifasi. Pedagogik texnika haqida tushuncha pedagogik texnikani shakllantirish uslublari. Pedagogik texnika-o‘qituvchining fe`l-atvori, yurish-turishini tashkil etuvchi usullar majmuasi. Pedagogik texnika vositasi: verbal va noverbal kommunikatsiya. Pedagogik texnikaning tarkibiy qimlari. Nutq texnikasi va notiqlik madaniyati. O‘qituvchining ta`lim jarayonidagi mahorati. O‘qituvchining tarbiyachi sifatidagi mahorati. O‘qituvchining tarbiya texnologiyalari asosida faoliyat olib borishi.. O‘qituvchi pedagogik faoliyatida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Pedagogik mahoratni oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati. O‘qituvchi pedagogik faoliyatida

kasbiy refleksiyaning o'rnini. O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish  
Pedagogik mahoratni shakllantirishning asosiy tamoyillari: yaxlit holda yondashuv;  
faol muloqot; pedagogik harakatning xilma-xilligi; pedagogik ta'sirining ko'p  
qirraliligi; nazariy bilim va amaliy malakalarning o'zaro bog'liqligi.

**“Umumiy pedagogika” fanidan davlat attestatsiyasi test sinovining asosiy  
savollari:**

1. Pedagogika fanining predmeti
2. Pedagogika fanining asosiy vazifalari qaysi qatorda ko'rsatilgan?
3. Pedagogikaning obekti – bu.....
4. Kategoriya deb nimaga aytiladi
5. Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga qaysilar kiradi
6. Pedagogikaning umumnazariy masalalari, qonuniyatlari va tamoyillari hamda tasniflashga oid masalalarni o'rganadigan fan bu.....
7. Pedagogika fanlar tizimi qaysi qatorda ko'rsatilgan?
8. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.
9. jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan bog'liq muammolarni o'rganadi.
10. Shaxs rivojlanishi bu....
11. Shaxsga rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar?
12. “Ta'lim prinsiplari bor ekan, hamisha tarbiya prinsiplari ham bo'ladi, yoki aksincha”
13. ....bu ob'yektiv mavjud bo'lgan, takrorlanadigan, barqaror hodisalar orasidagi ma'lum aloqadorliklar yig'indisi....
14. Pedagogik jarayon qonuniyatlari asosida uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan qo'yiladigan muhim talablar ..... deb ataladi.
15. Didaktika ilmiy bilimlar tizimi sifatida birinchi marta chex pedagogi .....ning «Buyuk didaktika» (1657-yil) asarida ochib berilgan.
16. Didaktika qaysi so'zdan olingan va qanday ma'noni anglatadi?
17. Didaktikaning asosiy kategoriyalari bu.....
18. O'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, kompetensiya va fikrlash usullari tizimi.
19. Ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi.
20. Egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish layoqati.
21. Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari orasidagi ob'yektiv, mavjud, barqaror, takrorlanuvchi aloqadorlik.....
22. Metod so'zi qaysi so'zdan olingan va qanday ma'noni anglatadi?

- 23.....bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayoni..
24. Illyustratsiya, demonstratsiya ta'lim metodlarining qaysi turiga kiradi?
- 25.Og'zaki ta'lim metodlari ko'rsatilgan qatorni toping?
26. o'quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdan iborat ta'lim metodi.
- 27.....bu o'qituvchi va o'quv chining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan o'quv-bilish faoliyatining tashqi ifodasidir.
- 28..... didaktik jarayonda kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir.
- 29.Ta'limni tashkil etishning yordamchi shakllari.....
30. baholashning ball shaklida ko'rsatilgan son jihatdan o'lchami bu.....
31. har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish bu.....
- 32.Tarbiya Jarayoni.....bu?
- 33.....bu tarbiyaviy ishning yo'nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkil etilishiga, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo'yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalardir.
- 34.....tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari yig'indisidir.
- 35.Shaxs ongini shakllantirish (ishontirish) metodlariga.....
- 36.Faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish (mashq) metodlarga....
- 37.....kishilaming turmush tarzi, hayoti, axloq-odobi, madaniyatini yanada o'zida mujassamlashtirgan tasavurlar,bilimlar yig'indisidir.
- 38.....(arabcha - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir?
- 39.Ezgulik, tartiblilik, haqqoniylik, rostgo'ylik, adolatlilik, mehnatsevarlik, jamoaviylik kabi sifat va xususiyatlami o'zida birlashtirgan shaxs tavsifi bu.....
- 40.Jismoniy tarbiyaning rivojlantiruvchi, tarbiyaviy, ta'limiy,sog'lomlashtiruvchi, umummadaniy vazifalarini ajratib ko'rsatgan pedagog olim.....
- 41.“Maqsadga muvofiqlik” so'zi bilan aniqlanadigan ma'naviy o'lchovga ega jarayon?
- 42.Boshqaruv uslublari ko'rsatilgan qatorni toping?
- 43.....ta'lim muassasasi jamoasining yuqori boshqaruv organi bu.....
- 44.Rivojlanshida turli nuqson (kamchilik)lar bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish va tarbiyalash bilan shug'ulanadigan soha

- 45.Korreksion (maxsus) Pedagogika qaysi so‘zdan olingan nima ma’noni anglatadi?
- 46.surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika, logopediya sohalari pedagogikaning qaysi sohasiga mansub?
- 47.belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o‘rtasidagi nomuvofiqlikni yo‘qotish yoki kamaytirishdan iborat bo‘lgan jarayon?
- 48.... yunoncha «rehabilitas» - layoqati, qobiliyatini tiklash)ma’nosini anglatadi?
- 49....(yunoncha tuzatish) bolaning ruhiy yoki jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yo‘qotish va pasaytirishni nazarda tutadi
- 50.....(ingliz tilidan olingan bo‘lib, inclusive, inclusion - uyg‘unlashmoq, uyg‘unlash- tirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma’nolarini bildiradi)
51. Didaktika termini birinchi bo‘lib o‘zining ilmiy maqolasida qo‘llagan olim
- 52....loyihasining maqsadi Sharqiy Yevropa davlatlari bilan amalga oshirilayotgan tadqiqotlarai uyg‘unlashtirish.
- 53.Yevropa Ittifoqining hamkor-davlatlarda oliy ta’limni rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturi
- 54.Xotin-qizlarning kasbiy ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan loyihalar tizimi
- 55.O‘zbekiston respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni qachon qabul qilingan?
- 56.“Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi” “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning nechinchi bobiga tegishli?
- 57.Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning nechinchi moddasida aks etgan?
- 58.Pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning nechinchi moddasida aks etgan?
- 59.Pedagog xodimlarning majburiyatlari “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning nechinchi moddasida aks etgan?
- 60.Ta’lim oluvchilarning huquqlari “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning nechinchi moddasida aks etgan?
- 61.Ta’lim oluvchilarning majburiyatlari “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning nechinchi moddasida aks etgan?
- 62.“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning maqsadini aniqlang?
- 63.Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning nechinchi moddasida aks etgan?
- 64.Ta’lim olish huquqi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning nechinchi moddasida aks etgan?
- 65.“Inklyuziv” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?
- 66.Rejalashtirish -

67. Estetik tarbiya bu?
68. Quyidagi metodlardan qaysilari ongni shakllantirish metodlariga kiradi:  
1) hikoya; 2) pedagogik talab; 3) etik suhbat; 4) mashq; 5) tushuntirish
69. Mashq, o'rgatish, tarbiyaviy vaziyat tarbiyaning qaysi metodlariga kiradi?
70. Quyidagilardan qaysi biri yuqori darajada uyushgan jamoa hisoblanadi
71. Demonstratsiya – bu:
72. Aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyo-qarashini tarkib toptirish jarayoni bu.....
73. Estetika so'zining ma'nosi nima
74. Estetik tarbiyaning asosiy vositalarini aniqlang.
75. Shaxsning tabiat, jamiyat va sana'dagi maqsad tarzida idrok etadigan, takomillashgan go'zallik borasidagi bahosining aks etishi nima deb ataladi
76. - ishlab chiqarishdan ajralmagan holda doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganish va ular tomonidan ilmiy izlanishlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajalari izlanuvchilari uchun OTM va ITMlarda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim shakli
77. Estetik axborotlar oqimi, estetik va axloqiy normalar yig'indisi orqali shakllanadigan va shaxsning buyum, hodisalarga estetik baho berishida yaqqol namoyon bo'ladigan hodisa nima deb ataladi
78. O'qitish metodlarining tasnifini ishlab chiqqan olim kim?
79. Pedagogikaning qaysi sohasi shaxsi va faoliyatida nuqsoni bor bolalarni o'qitish va tarbiyalash bilan shug'ullanadi?
80. Idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni
81. Ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi;
82. Pedagogikaning fanining obekti – bu...
83. Neyropedagogika bu -
84. Pedagogik antropologiya -
85. Qaysi so'z metod tushunchasining mohiyatini ochib beradi
86. Metod va usul tushunchalari bir narsami
87. (illyustratsiya) metodi ko'rsatilgan qatorni belgilang.
88. Ta'limning ko'rgazmali metodlarini ko'rsating.
89. .... yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan obyekt.
90. Ta'lim mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlarni belgilang.

- 91.....ma'lum bir fanning mazmunini dastur asosida didaktik talablarga rioya qilgan xolda bayon etuvchi o'quv kitobidir
- 92.“Dunyodan – bolaga, boladan – dunyoga” kitobining muallifi kim?
- 93.Hamma narsa uzluksiz ketmaketlikda olib borilishi kerak, bugungi aytganlaringiz kechagisini mustahkamlashi va ertangi aytganingizga yo'l ochib berishi kerak deb ta'kidlagan olim?
- 94.Bilimni ma'lum bir tizimda va uzluksiz ravishda berib boorish-bu?
- 95.Shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati-bu....?
- 96.“Moddiy va ma'naviy hayotni uyg'un rivojlantirishimiz kerak. Maktab bu borada asosiy bo'g'in bo'lishi lozim. Maktab ta'limini rivojlantirish biz uchun buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur” bu fikrlar kimga tegishli.
- 97.2019- yil 23-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev boshchiligida bo'lib o'tgan videoselektorda maktablarda qaysi fan o'qitilishi ma'lum qilindi.
- 98.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmon nima to'g'risida edi.
- 99.Ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan qaysi?
- 100.Ta'lim mazmuni deganda.....
- 101.Shaxsga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni toping?
- 102.Muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy- tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni-bu....?
- 103.O'quvchilarni nazariy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon- bu...?
- 104.Shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui-bu...?
- 105.Ko'nikma -...?
- 106.Malaka-...?
- 107.Ta'lim- tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui-bu...?
- 108.Rivojlanish – bu..?
- 109.Maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim tarbiya berish masalalarini o'rganuvchi fan qaysi?
- 110.Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalarini o'rganuvchi soha bu..?

111. Ijtimoiy munosabatlar jarayonida pedagogik g'oyalarning tutgan o'rnini, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo'naltirish muommolarini o'rganuvchi fan?
112. ....- ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba- avvali va yakunida qolga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi.
113. Anketa so'zining lug'aviy ma'nosi?
114. Fan olimpiadalari, turli mavzulardagi tanlovlar, maktab ko'rgazmalari, festivallar, musobaqalar qaysi metodning shakllari hisoblanadi.
115. Eksperiment so'zining lug'aviy ma'nosi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?
116. Bixeviorizm ta'limotining asoschisi kim?
117. Inson ko'rib turgan, uning mavjudligini, shakllanishini ta'minlaydigan moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning majmuasi-...?
118. Yosh xususiyatlari deb ...?
119. Bolaning jismoniy va psixik kamoloti qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?
120. Qaysi yosh davrida o'yin faoliyatini o'rnini o'qish egallaydi?
121. Katta maktab yoshidagi o'quvchilarning yosh ko'rsatkichlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang?
122. Pedagogik jarayonda ishtirok etadigan tizim tarkibiy qismlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
123. Pedagogik jarayon qonuniyatlari-...?
124. Ta'lim nazariyasi – bu?
125. Didakrikaning asosiy vazifasi nima?
126. Didaktikaning asosiy kategoriyalari qaysilar?
127. Ta'lim vositalari-bu...?
128. ....-bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni bo'lib, o'quvchilar intellektual, irodaviy va jismoniy kuch-g'ayratini talab etadi hamda ularning rivojlanishini rag'batlantiradi.
129. Ta'limning mazmunli tamoyillari qaysi qatorda to'g'ri keltirilgan?
130. Jamiyatning shaxsni ma'naviy rivojlanishi darajasiga qo'yilgan talablar, jamiyatning ijtimoiy tajriba va madaniyatini aks ettirgan ijtimoiy buyurtmasi modeli.. bu?
131. Sinflar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv fanlari va shu fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari nimada ko'rsatiladi?
132. O'quv fan dasturi ..... asoslanadi?
133. Ta'limning binar metodlari muallifi kim?
134. Ta'limning bilimlarni o'g'zaki bayon qilish metodlari qaysilar?
135. Ta'lim vositalari faoliyat obyektlari bo'yicha necha turga bo'linadi?
136. Bundan 350 yil avval vujufga kelgan ta'limni tashkil etish shakli bu?

